

**“Olmaliq KMK” AJ**  
**Komplaens-nazorat xizmati to‘g‘risidagi**  
**NIZOM**

---

## 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Kombinat Boshqaruvi raisining 2022 yil 4-apreldagi “Olmaliq KMK” AJ ijro apparati tashkiliy tuzilmasiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 000364-son buyrug‘iga muvofiq, ishlab chiqilgan bo‘lib, “Olmaliq KMK” AJning Ijro apparatidagi **“Komplaens-nazorat xizmati”ning** (bundan buyon matnda – Xizmat deb yuritiladi) maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari hamda uning faoliyatini tashkil etish va tugatish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomni tasdiqlash, unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, Xizmatni tashkil etish va tugatishga oid masalalar Kombinat Boshqaruvi raisining tegishli qarorlariga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Xizmat, Kombinatda korrupsiyaviy xatarlarni barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, shuningdek, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko‘rishga mas’ul hisoblangan **Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yagona Ichki nazorat tuzilmasi hisoblanadi.**

4. Xizmat o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, amaldagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, Kombinat Boshqaruvi raisining qarorlari, buyruqlari va farmoyishlariga, Kombinatning “Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati” talablariga va ichki mehnat tartibi qoidalariga, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi.

5. Xizmat o‘z faoliyatini qonuniylik, xolislik, ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta’minlash prinsiplari asosida mustaqil ravishda amalga oshirishi uchun, Xizmatning faoliyati bevosita va to‘g‘ridan-to‘g‘ri Kombinat Boshqaruv raisiga hisobdorlik asosida tashkil etiladi.

6. Xizmat boshlig‘i Kombinat Boshqaruvi raisining tegishli buyruqlari asosida qonunchilik hujjatlariga muvofiq o‘rnatilgan tartibda vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi hamda egallab turgan lavozimidan ozod qilinadi.

7. Xizmatning shtatlar jadvali va tashkiliy tuzilmasi, Kombinatning shtatlar jadvali, tashkiliy tuzilmasi hamda xarajatlar smetasiga muvofiq Kombinat Boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Zarur hollarda, Kombinat Boshqaruvi raisi, Xizmatning shtatlar jadvali, tashkiliy tuzilmasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqiga ega.

8. Xizmat boshlig‘i, uning o‘rinbosarlari hamda xodimlarining Lavozim yo‘riqnomalari Kombinat Boshqaruvi Raisi tomonidan tasdiqlanadi.

9. Xizmat boshlig‘i, uning o‘rinbosarlari, xodimlari va mutaxassislariga qo‘yiladigan malaka talablari, ularning vazifa va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, mas’uliyati va javobgarligiga oid masalalar tegishli lavozim yo‘riqnomalariga ko‘ra xodimlar o‘rtasida ish yuklamasini va xizmat majburiyatlarni adolatli va teng taqsimlash tamoyillariga muvofiq Xizmat boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi.

10. Xizmatda ishni tashkil etish ichki mehnat tartibi, yong'in xavfsizligi, maxfiy axborot va ma'lumotlarni himoya qilish, kompyuter tizimini muhofaza qilish va Kombinat mol-mulkini asrash qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

11. Xizmat xodimlarining mehnatiga haq to'lash va ularni mukofotlash va rag'batlantirish, O'zbekiston Respublikasining mehnatga oid qonunchilik hujjatlari hamda Kombinatning ichki normativ hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Kombinatning ichki normativ hujjatlarida xodimlar uchun nazarda tutilgan barcha imtiyoz va preferensiyalar, Xizmatning barcha xodimlariga nisbatan to'liq hajmda tadbiq etiladi.

12. Ushbu Nizomda belgilangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish uchun Xizmat, Kombinat ijro apparati (departament, boshqarma, xizmat, bo'lim, ofis, sektor, byuro va boshqalar) hamda barcha tarkibiy bo'linmalar (ishlab chiqarish, xizmati ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalar) bilan o'zaro hamkorlik qiladi hamda ularning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi.

13. Xizmatning Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo'linmalari bilan o'zaro munosabatlari va hamkorligi Kombinatning "Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati", "Odob-ahloq qoidalari" korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi boshqa ichki normativ hujjatlari hamda ushbu Nizomda belgilab qo'yilgan maqsadlar, vazifalar va funksiyalar, shuningdek huquq va majburiyatlar doirasida amalga oshiriladi.

14. Xizmatning so'roviga asosan Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar va sexlar), Kombinatda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi xatarlarni tahlil qilish, monitoringini olib borish, xavf-xatari yuqori bo'lgan, Kombinatning ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli yuqori bo'lgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf qilish kabi masalalar bo'yicha hujjat, ma'lumot va axborotni zudlik bilan Xizmatga taqdim etadilar.

15. Xizmatning Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo'linmalar (korxonalar va sexlar) ishchi va xodimlari, shuningdek rahbarlari (mansabdor shaxslari) bilan hamkorligi, telefon aloqasi, faks, elektron pochta, qog'oz yozishmalar almashinuvi, shaxsiy muloqot va boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

16. Xizmatning huquqni muhofaza qiluvchi organlar, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat vakolatli organi, boshqa davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, Kombinatning ishbilarmon hamkorlari, sheriklari, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik vakillari bilan aloqalari va hamkorligi, Kombinatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarining ustuvorligi tamoyiliga asoslanadi.

## **2-bob. Xizmatning asosiy maqsadi va vazifalari**

17. Xizmatning asosiy maqsadi Kombinatda, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha **ISO 37001:2016 xalqaro standarti** talablariga javob beruvchi kompleks tizimni, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va rivojlantirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini

olish, Kombinat xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz (toqatsiz) munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, Kombinatda korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta'minlashdan iborat.

### **18. Quyidagilar Xizmatning asosiy vazifalari hisoblanadi:**

- Xavf-xatarlar va tahdidlar ko'lamini va darajasini pasaytirish orqali Kombinatda (korxonalar va sexlarida) yuqori foyda ko'rsatkichlariga erishishga vakolatlari doirasida ko'maklashish;

- Kombinatda korrupsiyaviy xavf-xatarlar va tahdidlarni barvaqt aniqlash va oldini olish mexanizmlarini joriy qilish;

- Xavf-xatarlarning xavflilik darajasini to'g'ri baholash va ularning xavflilik darajasini belgilash, "o'ta xavfli yoxud xavflilik darajasi yuqori" deb tasniflangan Xavf-xatarlarga nisbatan samarali va ta'sirchan javob choralari qo'llash;

- Kombinatda korrupsiyaviy xatarlarni boshqarish faoliyatini muvofiqlashtirish orqali Kombinatning barqaror rivojlanishini ta'minlash;

- Xatarlarni boshqarish bo'yicha uslubiy va huquqiy asoslarni ishlab chiqish, joriy qilish va muntazam ravishda yangilab borish orqali korrupsiyaviy xatarlar va tahdidlarni boshqarish jarayonlarining samaradorligini oshirishni ta'minlashda ishtirok etish;

- Kombinatda korrupsiyaviy xatarlar reestri, korrupsiyaviy xatarlar xaritasi va korrupsiyaviy xatarlarni boshqarish bo'yicha jamlanma/umumlashgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish ishlarini tashkillashtirish;

- Kombinat faoliyatidagi asosiy korrupsiyaviy xatarlarni aniqlash, baholash, nazorat jarayonlarini tashkil qilish, qabul qilingan xavf darajasini (xavf-xatarlarga bardoshlilik darajasini) hisoblash ishlarini muvofiqlashtirish;

- Kombinat faoliyatidagi asosiy xatarlarni aniqlash, baholash, nazorat jarayonlarini tashkil qilish ishlarini muvofiqlashtirish;

- Korrupsiyaga qarshi kurashish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, monopoliyaga qarshi talablar, soliq va boshqa majburiy to'lovlarga oid qonunchilik hujjatlari, shuningdek, Kombinatning ichki normativ hujjatlarining talab va qoidalarining ijro apparatidagi bo'linmalar hamda tizimdagi korxonalar (sexlar) tomonidan ijrosini tekshirish va nazorat qilish;

- murakkab moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq qonunbuzarliklarni fosh qilish va bartaraf qilish;

- mansab mavqeini suiiste'mol qilish yoxud korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish;

- xodimlarning o'z vazifalariga loqaydlik (mansab sovuqqonligi) yoxud vijdotsizlarcha munosabatda bo'lishi bilan bog'liq qonun buzilish holatlarini aniqlash va bartaraf qilish;

- Kombinatga aloqador bo'lmagan shaxslar tomonidan Kombinat mol-mulkini talon-toraj qilish maqsadida o'g'irlik, bosqinchilik va talonchilik kabi noqonuniy xatti-harakatlar va tahdidlarning oldini olish ishlarida ishtirok etish;

- Kombinatning ishbilarmonlik obro'siga, shuningdek, to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi (zarar yetkazishi) mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va tahdidlarni barvaqt aniqlash va oldini olish ishlarida ishtirok etish;

- Kombinatning ichki normativ hujjatlari, shuningdek Kombinat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan har qanday yuridik va jismoniy shaxslar (sheriklar, ishbilarmon hamkorlar va kontragentlar), Kombinat bilan hamkorlik qilish va shartnomaviy munosabatlarga kirishish harakatida bo'lgan har qanday yuridik va jismoniy shaxslar (salohiyatli, potensial sheriklar va hamkorlar), Kombinat tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning xaridori va iste'molchilarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish ishlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

- Kombinat tomonidan tuzilishi kutilayotgan tashqi savdo (eksport va import) bitimlarini (kontraktlarini), shuningdek xorijiy kredit va investitsiyalarni jalb qilishga oid shartnomalarni, sanksiya va ta'qiq talablariga muvofiqligini tekshirib borish, ularni tuzishning maqsadga muvofiqligi bo'yicha Kombinatning Ichki audit xizmati, Ishlab chiqarish va moliyaviy xatarlarni monitoring qilish bo'limi, Yuridik departamenti, Moddiy-texnik ta'minot boshqarmasi hamda tashabbuskor bo'linmalarning rasmiy (yozma shakldagi) xulosalarini umumlashtiradi hamda tegishli xulosalar asosida Boshqaruv raisi va zarurat bo'lganda esa Kuzatuv kengashiga umumlashtirilgan xulosalar kiritish;

- amalda bo'lgan eksport (import) shartnomalarida (kontraktlarida), shuningdek xorijiy kredit va investitsiyalarni jalb qilishga oid shartnomalarni, basharti bunday shartnoma va bitimlarda (kontraktlarda) sanksiya va ta'qiq joriy qilingan tovarlar (xizmatlar) oldi-sotdisi yoki sanktsiyalarni aylanib o'tishga doir shubha mavjud bo'lganda, ushbu shartnoma va bitimlarni (kontraktlarni) ijrosini to'xtatish bo'yicha takliflar kiritish;

- Kombinatda "sanksiyaviy kompliens nazorat" funksiyasini amalga oshirish, ushbu funktsiya doirasida Kombinat ijro apparatidagi bo'linmalar hamda tizimdagi korxonalar (sexlar) va bo'linmalarning faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

- Sanksiyalar va cheklovlar joriy etilgan kompaniyalar bilan hamkorlikni vaqtinchalik cheklash choralari ko'rish va ushbu holatlar bo'yicha Kombinat boshqaruv raisiga, Kuzatuv kengashiga takliflarni kiritish;

- Kombinatda sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar va manfaatlar to'qnashuvining oqibatlari va Kombinatning manfaatlariga yetkazilgan zararlari miqdorlarini kamaytirish va yumshatish (minimallashtirish);

- Kombinatda korrupsiyaviy huquqbuzarliklar, xavf-xatarlar va tahdidlarning ko‘lamini keskin qisqartirish (minimallashtirish) maqsadida tizimli asosda va muntazam ravishda monitoring va nazorat tadbirlarini amalga oshirish, profilaktik tadbirlar miqyosini va ko‘lamini muntazam kengaytirish;

- har chorak yakuni bilan Kombinat Aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi, Boshqaruv raisi hamda vakolatli davlat organlariga Kombinatda sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar, aniqlangan mavjud xavf-xatarlar, tahdidlar va ularni bartaraf etish uchun ko‘rilgan choralar, oldini olish va barvaqt aniqlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, shuningdek, Kombinatda korrupsiyaning ildizlarini yo‘qotishga qaratilgan asosli takliflarni kiritish;

Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni joriy etish va takomillashtirish, jumladan Kombinatda **ISO 37001:2016 xalqaro standartini** joriy etish ishlarini muvofiqlashtirish;

Kombinatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish ishlarini muvofiqlashtirish;

Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini monitoring qilish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va idoralari bilan hamkorlik qilish.

Xizmat qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifa hamda funksiyalarni ham amalga oshiradi.

Xizmatga hamda uning xodimlariga ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan vazifa, funktsiya va topshiriqlar yuklatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

### **3-bob. Xizmatning ish tarkibi**

**19. Xizmatga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, uning ish tarkibi quyidagilardan iborat bo‘ladi.**

***Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan tizimni shakllantirish, joriy etish va takomillashtirish yo‘nalishidagi ishlar tarkibi:***

Kombinat ijro apparatining tegishli tuzilmalari hamda tarkibiy bo‘linmalari bilan hamkorlikda, Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Kombinat ijro apparatining tegishli tuzilma va tarkibiy bo‘linmalari bilan hamkorlikda, Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Kombinat boshqaruv raisi yoxud Kuzatuv kengashiga kiritadi;

Kombinat ijro apparatining tegishli tuzilma va tarkibiy bo‘linmalari bilan hamkorlikda, Kombinat faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki normativ hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

Kombinat ijro apparatining tegishli tuzilma va tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar loyihalarini Kombinatda joriy qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtai nazaridan baholaydi hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar beradi;

Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan takliflarni o‘rnatilgan tartibda Kombinat Boshqaruv raisiga, Kuzatuv kengashiga hamda vakolatli davlat organiga kiritishni ta‘minlaydi.

***20. Kombinat ijro apparatining tegishli tuzilma va tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish yo‘nalishidagi ishlar tarkibi:***

Kombinatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlarini tashkil qiladi hamda muvofiqlashtiradi, ularning natijalari bo‘yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish ishlarida ishtirok etadi, shuningdek Kombinatda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini shakllantiradi va muntazam yangilab borilishini nazorat qiladi;

Kombinat tomonidan o‘xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari, davlat hokimiyatining boshqa organlari, davlat ulushi ishtirokidagi bo‘linmalarda korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo‘nalishlari to‘g‘risida ochiq manbalardan ma‘lumot to‘playdi va tahlil qiladi;

maxsus axborot aloqa kanallari orqali Kombinat xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va mutasaddi ijrochilar tomonidan belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishini ta‘minlaydi;

Kombinatda korrupsiya faktlariga doir o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari va boshqa nazorat tadbirlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning “Xizmat tekshiruvlarini ro‘yxatga olish reestri” yoxud boshqa tegishli hujjatda to‘liq va to‘g‘ri aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvini tahlil qilish va Kombinat bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoxud jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirishga oid ishlarda ishtirok etadi hamda bunday faoliyatni muvofiqlashtiradi;

Kombinat xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalar bo‘yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo‘ljallangan maxsus axborot aloqa kanallarining faoliyat natijalarini tahlil qiladi va tahliliy materiallarni Kombinat xodimlariga, Boshqaruv raisiga, Kuzatuv kengashiga hamda vakolatli davlat organiga yetkazilishini ta‘minlaydi;

Kombinat faoliyatidagi korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida Kombinat xodimlari hamda aholi o'rtasida so'rovlar va o'rganishlar o'tkazadi;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarni buzganligi bois intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga nisbatan, qo'llaniladigan jazo choralarining mutanosibligi va yetarli ekanligini nazorat qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Kombinatda korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan barcha xizmat tekshiruvlari natijalariga oid ma'lumot va to'plangan hujjatlarni tahlil qiladi;

har chorak yakuni bilan yoxud Boshqaruv raisining topshirig'iga ko'ra, Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda tarkibdagi korrupsiyaviy holat haqida Boshqaruv raisi, Kuzatuv kengashi hamda vakolatli davlat organlariga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlaydi.

***21. Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali va ta'sirchan ishlashini ta'minlash va nazorat qilish yo'nalishidagi ishlar tarkibi:***

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida Kombinat zimmasiga yuklatilgan topshiriq va vazifalarning ijrosini monitoring hamda nazoratini amalga oshiradi;

Kombinatda joriy etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini - **ISO 37001:2016 Korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro standarti** talablari va shartlariga moslashtirish va muvofiqlashtirish yuzasidan Boshqaruv raisiga, Kuzatuv kengashiga asoslangan takliflar kiritadi;

Kombinat xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarining korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan normalariga oid qismini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Kombinatdagi korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori deb baholangan lavozimlar ro'yxatidagi xodimlar uchun korrupsiyaning oldini olish bo'yicha o'quv materiallari, qo'llanma, yo'riqnoma, reglamentlar va boshqa hujjatlar ishlab chiqilishini tashkil qiladi hamda bu boradagi ishlarni muvofiqlashtiradi;

Boshqaruv raisi yoxud Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan o'quv reja va ro'yxatga muvofiq Kombinatning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashishning dolzarb muammolari bo'yicha trening, seminar, vebinar, mahorat darsi (master-klass), va boshqa shakl va formatdagi o'quv va malaka oshirish kurslarini tashkil etishda ishtirok etadi, bunday tadbirlarda xodimlar va birinchi navbatda korrupsiyaviy xavfi yuqori deb baholangan lavozimlarni egallab turgan xodimlar (shu jumladan, Boshqaruv a'zolari) ishtiroki Kadrlar bilan ishlash bo'limi tomonidan ta'minlanishini nazorat qiladi;

xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan konferensiyalar, simpoziumlar, uchrashuvlar, seminarlar, vebinarlar, tanlovlar, aksiyalar, fleshmoblar, sayillar, ijtimoiy videoroliklar va boshqa ommaviy tadbirlarni tashkil qilishda ishtirok etadi;

Kombinat xodimlari va fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot va tashviqot tadbirlarida ishtirok etadi;



Kombinatning axborot xizmati (matbuot kotibi) tomonidan Kombinatning internet tarmog'ida rasmiy veb-sahifasining titul varag'ida "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limi hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarga joylashtiriladigan ma'lumotlarning muntazam ravishda yangilanib borish ishlarini muvofiqlashtiradi va ijrosini nazorat qiladi;

Kombinatdagi egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar barcha xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga hamda Kombinatning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga doir ichki normativ hujjatlariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

Kombinat xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy xatti-harakatlar yoxud manfaatlar to'qnashuvi holatlari bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tashabbusini ilgari suradi hamda Kombinatda o'tkaziladigan xizmat tekshiruvlarini muvofiqlashtiradi, nazorat qiladi va zarur bo'lgan hollarda unda ishtirok etadi;

Kombinat ijro apparatining tegishli tuzilma va tarkibiy bo'linmalarida tashkil qilinadigan Odob-ahloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi, qonuniyligi va Kombinatning "Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati" va sohaga oid boshqa ichki normativ hujjatlarining talab va qoidalarga muvofiqligini tekshiradi;

amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha Kombinat ijro apparatining tegishli tuzilma va tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqadi hamda Boshqaruv raisining topshirig'iga asosan vakolatli davlat organlariga taqdim etadi;

Kombinat ijro apparatining tegishli tuzilma va tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul bo'lgan boshqa tuzilmalar (yoxud ma'sul shaxslar) bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarni tashkil etadi hamda ularning ushbu yo'nalishdagi faoliyatlarini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

Kombinat ijro apparatining tegishli tuzilma va tarkibiy bo'linmalari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan faoliyatning Kombinatning ichki normativ hujjatlari hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan tekshiruvlar, o'rganishlar va nazorat tadbirlarini o'tkazadi.

***22. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va idoralari bilan hamkorlikni olib borish yo'nalishidagi ishlar tarkibi:***

Kombinat xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, Kombinat xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz (toqatsiz) munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi va bunday faoliyatni muvofiqlashtiradi, nazorat qiladi;

qonunchilik hujjatlari bilan Kombinat zimmasiga yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to'g'risida so'rovlar yuboradi hamda ularning so'rovlariga javob berishda ishtirok etadi;

Kombinat ijro apparatining tegishli tuzilma va tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish, ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan tizimni joriy etish yuzasidan xorijiy va mahalliy yetuk va professional mutaxassis va ekspertlarni jalb etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

Kombinat ijro apparatining tegishli tuzilma va tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaviy xatti-harakatlarni bartaraf qilish yoxud korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

23. Xizmat qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa ishlarni ham amalga oshiradi.

24. Xizmatga hamda uning xodimlariga ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan vazifa, funksiya va topshiriqlar yuklatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

#### **4-bob. Xizmatning huquq va majburiyatlari**

25. Xizmat o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Kombinat xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma’lumotlarni olish;

xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Kombinat xodimlaridan (shu jumladan, Boshqaruv a’zolaridan) zarur yordam so‘rash va olish;

Kombinat xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish;

Boshqaruv raisiga Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish;

Xizmat o‘z huquq va vakolatlari doirasida Kombinat ijro apparatidagi bo‘linmalar (departament, boshqarma, bo‘lim, sektor, xizmat, byuro, ofis va boshqalar) hamda tarkibiy bo‘linmalarga (ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan korxonalar) yozma ko‘rsatmalar, topshiriq xatlari, taklif va tavsiyalar berish;

Kombinatda o‘tkaziladigan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga bag‘ishlangan majlis va uchrashuvlarda ishtirok etish;

xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish, hujjatlarni talab qilish, xodimlardan yozma tushuntirishlar olish kabi huquqlarga ega.

Xizmat qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

26. Xizmat boshlig‘i, uning o‘rinbosarlari hamda xodimlari o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi majburiyatlarga ega:

ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan Xizmatga yuklatilgan funksiyalarni zarur darajada va samarali bajarish;

qonunchilik hujjatlari talablariga qat’iy rioya qilish hamda o‘z vakolatlari doirasidan chetga chiqmaslik;

Kombinatda jinoyat alomatlarini, xususan korrupsiyaviy huquqbuzarlik faktlari aniqlanganligi to‘g‘risida zudlik bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Boshqaruv raisiga, o‘rnatilgan tartibda vakolatli davlat organiga, shuningdek boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

Kombinatda “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati”, “Odob-ahloq qoidalari” hamda “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom”larning talab va qoidalarining buzilganligi fakti yuzasidan zudlik bilan Boshqaruv raisini xabardor qilish;

har chorak yakuni bilan, keyingi oyning birinchi o‘n kunligida Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to‘g‘risida choraklik hisobotni Boshqaruv raisiga, Kuzatuv kengashiga hamda o‘rnatilgan tartibda vakolatli davlat organiga taqdim etishni ta’minlash.

27. Xizmat boshlig‘i, uning o‘rinbosarlari hamda xodimlari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

### **5-bob. Xizmat faoliyatining ish sifati va samaradorligini baholash mezonlari**

28. Xizmat faoliyatining natijadorligi Kombinatda ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish, xaridlarni amalga oshirishi, moliya va xo‘jalik operatsiyalari va boshqa yo‘nalishlar bilan bog‘liq korrupsiyaviy xatarlarni barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish shuningdek, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralari ko‘rish tizimining samaradorlik va maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish natijalariga asosan baholanadi.

29. Xizmat faoliyati samaradorligining maqsadli ko‘rsatkichlari va ularni baholash mezonlari bevosita Boshqaruv raisi yoxud Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Xizmat faoliyati samaradorligining maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish ustidan nazorat qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat vakolatli organi tomonidan amalga oshiriladi.

30. Xizmat faoliyatining samaradorligi va natijadorligini monitoring qilish, Xizmatga berilgan vakolat va huquqlarning hamda yuklatilgan vazifa va funksiyalarning o‘zaro mutanosibligi va yetarliligi, to‘liq va sifatli amalga oshirilayotganligi hamda belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishilayotganligi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat vakolatli organi, Kuzatuv kengashi hamda Boshqaruv raisi tomonidan hamkorlikda o‘rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

31. Xizmat faoliyatining samaradorligi va natijadorligi muntazam baholab boriladi.

32. Xizmat faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash yakunlari bo‘yicha:

Xizmat boshlig‘i, uning o‘rinbosarlari hamda xodimlarini rag‘batlantirish (mukofotlash) yoxud intizomiy javobgarlikka tortish;

Xizmat faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va uning faoliyatini yanada takomillashtirish choralari ko‘riladi.

### **6-bob. Xizmatning javobgarligi**

33. Xizmat boshlig‘i, uning o‘rinbosarlari va xodimlari amaldagi qonunchilikka muvofiq quyidagilar uchun javobgar hisoblanadi:

Xizmat Nizomi hamda xodimlarining Lavozim yo'riqnomalari, boshqa qonunchilik hujjatlari bilan Xizmatga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni lozim darajada va samarali bajarmaganlik uchun;

qonunchilik hujjatlarining talablariga rioya qilmaganlik hamda o'z vakolatlari doirasidan chetga chiqqanlik uchun;

Kombinatda jinoyat alomatlari, xususan korrupsiyaviy huquqbuzarlik faktlari aniqlanganligi to'g'risida zudlik bilan to'g'ridan-to'g'ri Boshqaruv raisiga, Kuzatuv kengashiga hamda o'rnatilgan tartibda vakolatli davlat organiga, shuningdek boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar bermaganlik uchun;

Kombinatda "Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati", "Odob-ahloq qoidalari" hamda "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom"ning talab va qoidalarning buzilganligi fakti tasdiqlangan sanadan boshlab besh ish kunilik muddatda Boshqaruv raisiga xabar kiritmaganlik uchun;

har chorak yakuni bilan, navbatdagi oyning birinchi o'n kunligida Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to'g'risida choraklik hisobotni va yil yakuni bilan yillik hisobotni Boshqaruv raisiga, Kuzatuv kengashiga hamda o'rnatilgan tartibda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat vakolatli organiga taqdim etmaganlik uchun;

Korrupsiyaviy xatarlarni bartaraf qilish, ularning oqibatida sodir etilishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy holatlar borasidagi "Yo'l xaritalari", "Chora-tadbirlar" va boshqa topshiriq va vazifalarning ijrosiga doir hisobot va ma'lumotlarni qonunchilikda belgilangan muddatlarda anticor.ijro.uz yoxud boshqa platformaga kiritishni nazorat qilmaganlik uchun javobgar bo'ladi.

34. Xizmat boshlig'i, uning o'rinbosarlari va xodimlari o'zi viza qo'ygan hujjatlarning va o'zi bergan xulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun shaxsan mas'ul bo'ladi.

35. Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor deb topilgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.